

XORIJYI INVESTITSIYALAR TASNIFI VA TURLARI

Xayitboyev Behzod Xamidulla o'g'li

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13997924>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy investitsiyaning tasnifi va turlari xorijiy va mahalliy adabiyotlardan foydalangan holda keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy investitsiyalarga ta'sir qiladigan omillar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, portfel investitsiya, aksiyalar nazorat paketi.

CLASSIFICATION AND TYPES OF FOREIGN INVESTMENTS

Abstract. This article covers the classification and types of foreign investment using foreign and local literature. The article also mentions the factors affecting foreign investments.

Key Words: Investment, foreign investment, direct foreign investment, portfolio investment, control package of shares.

КЛАССИФИКАЦИЯ И ВИДЫ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ

Аннотация. В данной статье рассмотрена классификация и виды иностранных инвестиций с использованием зарубежной и отечественной литературы. В статье также упоминаются факторы, влияющие на иностранные инвестиции.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, портфельные инвестиции, контрольный пакет акций.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni rivojlantirishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Har bir davlatning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda, aholi turmush darajasini yaxshilashda xorijiy investitsiyalarning roli kattadir.

1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Chet el investitsiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida "Chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirdorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi".

Xorijiy investitsiyalarning umumiy ta'rifi F. Xeniusning 1947-yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: "Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar". Sh.Q. Fozilchayev va N.G'. Xidirovlarining "Investitsiya va lizing asoslari" kitobida xorijiy investitsiyaga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir".

"Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- Davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari bo'lган xalqaro tashkilotlar;
- Chet el davlatlarining qonun hujjalariiga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyishmalar;
- Chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lмаган shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Xorijiy investitsiyalarga asosan ikki guruh omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) Iqtisodiy omillar:

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;
- jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);
- ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;
- jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini o'sib borishi;
- ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) Siyosiy omillar:

- kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (erkin iqtisodiy hududlar, offshor hududlari va boshq.);
- rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

- iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiy lashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

- bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Xorijiy investitsiyalar 2 turga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va portfel investitsiyalarga bo'ladi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar - bu kapitalni to'g'ridan-to'g'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniyaning xorijdagi shahobchasiga aylanadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo'ladi.

Xalqaro Valyuta Fondi ta'rifi bo'yicha, agar xorijiy mulkdor aksioner jamiyatini ustav kapitalini kamida 25 % ega bo'lsa unda bu to'g'ridan-to'g'ri investitsiya hisoblanadi. Ya'ni, xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aktsionerlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi. AQSh qoununchiligi bo'yicha – kamida 10 foiz, Yevropa hamjamiyatida – 20 – 25 foiz, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiyada – 50 foizlarni tashkil etadi. O'zbekiston qonunchiligidagi bu raqam 30 foiz deb belgilab berilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ikki maqsadga yo'naltiriladi:

- Yangi kompaniyani tashkil qilish;
- Mavjud kompaniyalarni sotib olish yoki yutib yuborish.

Shuningdek, korxonaning boshqaruvida to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatlari ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir. Xorijiy investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun ma'suliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

Portfel investitsiyalar - shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Boshqcha qilib aytadigan bo'lsak, portfel investitsiyalar – bu kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog'ozlariga (korxona ustav kapitalining 10 foizdan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo'lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi, chunki investorlarning huquqi faqat dividend olish bilan chegaralanadi.

Portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu turdagagi investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni yechish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'larning bir

mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar. Bunday investitsiyalar ko'pincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba'zida esa o'z qimmatbaho qog'ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib oladi.

Portfel investitsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ularni tugatilish vaqtida qimmatbaho qog'ozlar tezda naqd valyutaga almashtirib olinishi mumkin.

Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda xorijiy investor o'z mablag'larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaho qog'ozlarga joylashtirishi mumkin. Ma'lum bir ma'noda portfel investitsiyasi pulni inflyatsiya va spekulyatsiya yo'lli bilan foyda ko'rishdan saqlash vositasi sifatida qaraladi. Bunda investitsiya qilinayotgan soha ham, qimmatbaho qog'oz turi ham hech qanday ahamiyatga ega emas, u ustama kurs o'sishiga qarab istalgan foydani bersa va dividendlar to'lansa bo'ldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va portfel investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro farqlarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

I-jadval

Belgilar	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad	Xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil qilish va yuritish	Xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to'liq egalik qilish b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVF ustaviga kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25 foizidan kam bo'lmasi kerak)	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 foizni sotib olish
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash joizki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishi, aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi aksariyat holatlarda milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq. Shunday ekan, har bir mamlakat ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag'larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirishga qaratilishi muqarrardir.

REFERENCES

1. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1998 yil 30 aprel. 3-modda.
2. Dictionary of International Trade. Global Marketing Strategies, 2015, p.82.
3. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma. – T .: Moliya, 2017 yil, 22 bet.
4. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma. – T .: Moliya, 2017 yil, 26 bet.